

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI: TERMIZ VA VINCHESTER SHAHARLARI TOPONIMIK OBYEKT NOMLARI MISOLIDA

Shoyimova Komila

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida toponimlarning struktur-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot Termiz (O‘zbekiston) va Vinchester (Angliya) shaharlarining toponimik obyekt nomlari materiallari asosida olib borildi. Toponimlarning etimologik ildizlari, semantik motivatsiyasi, topoformantlar tizimi va nomlash strategiyalaridagi farqlar tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, Termiz toponimlari ko‘proq milliy qadriyatlar, ijtimoiy-aksiologik mazmun hamda etnomadaniy belgilar bilan, Winchester toponimlari esa tarixiy qatlamdorlik, institutsional xotira va diniy-memorial omillar bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar: toponimika, oykonim, urbanonim, lingvokulturologiya, struktur-semantik tahlil, Termiz, Winchester, qiyosiy tilshunoslik.

Аннотация

В статье рассматриваются структурно-семантические и лингвокультурологические особенности топонимов узбекского и английского языков в сопоставительном аспекте. Материалом исследования послужили топонимические объекты городов Термез (Узбекистан) и Винчестер (Англия). Проанализированы этимологические основы, семантическая мотивация, система топоформантов и стратегии номинации. Результаты показывают, что топонимы Термеза в большей степени отражают национальные ценности и этнокультурные признаки, тогда как топонимия Винчестера отличается исторической стратификацией, институциональной памятью и религиозно-мемориальными факторами.

Ключевые слова: топонимика, ойконим, урбаноним, лингвокультурология, структурно-семантический анализ, Термез, Винчестер.

Abstract

The article presents a comparative study of Uzbek and English toponyms with a focus on their structural-semantic and linguocultural features. The research is based on the toponymic objects of Termez (Uzbekistan) and Winchester (England). The study examines etymological roots, semantic motivation, topoformants and naming strategies.

The findings reveal that Termez toponyms are strongly connected with ethnocultural identity and axiological meanings, while Winchester toponymy demonstrates historical stratification, institutional memory and religious-memorial factors.

Key words: toponymy, oikonym, urbanonym, linguoculturology, structural-semantic analysis, Termez, Winchester, comparative linguistics.

Kirish

Toponimlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va til tizimining o‘ziga xos qatlamini tashkil etadi. Ular geografik makon obyektlarini nomlash bilan cheklanmay, mazkur makon haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, qadriyatlar va tarixiy tajribani ham kodlaydi. Shu bois, toponimlarni lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilish hozirgi zamon tilshunosligida muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi.

O‘zbek va ingliz toponimlari o‘rtasidagi qiyosiy tahlil, xususan Termiz va Vinchester shaharlarining toponimik obyektlari misolida o‘rganish, turli madaniy makonlarda nomlashning umumiy hamda farqli tomonlarini ochib berishga xizmat qiladi. Termiz qadimgi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo‘lib, ko‘p qatlamli tarixiy jarayonlarni o‘zida mujassam etadi. Winchester esa ingliz tarixida qadimdan siyosiy va diniy markaz sifatida shakllangan bo‘lib, Rim davri hamda anglosakson madaniyat izlarini saqlagan urbanistik makondir. Demak, ushbu shaharlar toponimiyasi orqali turli davr va madaniyatlarni aks ettiruvchi nomlash motivatsiyasi va lingvistik mexanizmlarni aniqlash mumkin.

Tadqiqot maqsadi – Termiz va Winchester shaharlariga oid toponimik obyekt nomlarining struktur-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot materiali va metodlari

Tadqiqot materiali sifatida Termiz va Vinchester shaharlaridagi ko‘cha nomlari, mahalla nomlari, jamoat maskanlari, tarixiy obyektlar hamda muassasalar nomlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: tavsifiy metod (toponimlarni tasniflash va izohlash); qiyosiy metod (o‘zbek va ingliz toponimlarini solishtirish); komponent tahlil (toponim tarkibidagi semantik qismlarni ajratish); etimologik yondashuv (toponimlarning tarixiy kelib chiqishini izohlash); lingvokulturologik tahlil (toponimlarda madaniy kodlarni aniqlash).

Natijalar va muhokama

Toponimik obyektlarning nomlash motivatsiyasi –t adqiqot natijalariga ko‘ra, Termiz shahrining toponimlari asosan etnomadaniy, tabiiy-geografik, tarixiy hamda aksiologik motivatsiya asosida shakllangan. Xususan, ko‘plab urbanonimlarda mustaqillik, do‘stlik,

baraka kabi ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar uchrashi mumkin. Bu holat o'zbek toponimik an'anasida nomlashning aksariyat hollarda ijobiy baholovchi semantikaga tayanganini ko'rsatadi. Vinchester shahridagi toponimik obyektlar nomlashida esa institutsional tarix va diniy-memorial xotira ustuvor o'rinda turadi. Ko'cha va maydon nomlarining katta qismi tarixiy shaxslar, qirollik an'analari, shuningdek avliyolar nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa ingliz urban toponimiyasida "xotira" va "institut" tushunchalari nomlash mexanizmining markazida ekanini tasdiqlaydi. Toponimlarning struktur jihatdan tahlili Termiz toponimiyasida o'zbek tiliga xos topoformantlarning faol qo'llanilishini ko'rsatdi. Jumladan, -obod, -tepa, -kent kabi birliklar urban toponimlarni hosil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu formantlar toponimning semantik tarkibini boyitib, joy nomining ijtimoiy va tarixiy mazmunini mustahkamlaydi. Vinchesterda esa Old English va lotin qatlamiga mansub bo'lgan topoformantlar faol: -chester, -ton, -ham, -ford kabi komponentlar joy nomining tarixiy qatlamdorligini ifodalaydi. Mazkur formantlar orqali ingliz urban toponimiyasi arxaik til elementlarini hozirgi zamon nomlash tizimida saqlab qolgan.

Toponimik obyektlar nomlarida metafora nomlashning muhim mexanizmlaridan biridir. Termiz shahridagi ko'plab obyekt nomlarida metaforik nomlash ijtimoiy-aksiologik yo'nalishda bo'lib, u ijobiy qadriyatlar (kelajak, taraqqiyot, birlik)ni targ'ib etishga xizmat qiladi. Winchesterda esa metaforik nomlash tarixiy markazlilik, diniy ramziylik va shahar prestiji bilan bog'lanadi. Ushbu farq shuni ko'rsatadiki, Termiz toponimiyasida "makon" tushunchasi ko'proq jamiyat qadriyatlari orqali semantikashtirilsa, Winchester toponimiyasida u tarixiy-institutsional xotira orqali kodlanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Termiz va Vinchester shahar toponimlarining qiyosiy tahlili milliy toponimik tizimlarning lingvokulturologik mohiyatini anglashda muhim ekanini ko'rsatdi. Termiz toponimiyasi etnomadaniy birliklar, ijobiy aksiologik semantika va tarixiy-ijtimoiy motivatsiya bilan xarakterlansa, Winchester toponimiyasi tarixiy qatlamdorlik, diniy-memorial an'ana va institutsional nomlash tendensiyalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz toponimlari qiyosida nomlashning universal jihatlari (geografik motivatsiya, memorial xususiyat) ham mavjud bo'lib, ular turli madaniy makonlarda turlicha konseptuallashtirishni aniqlandi. Mazkur maqola natijalari toponimika bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek onomastikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

2. Qorayev S. O‘zbek toponimikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Rahmatov T. O‘zbek toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari. – Toshkent, 1973.
4. Enazarov T.J. O‘zbek toponimikasi va uning tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Buriev S.N. Toponimlarning etnolingvistik xususiyatlari. // *Til va adabiyot ta’limi*. – 2010. – №4. – B.12–16.
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2003.
7. Gelling M. Signposts to the Past: Place-Names and the History of England. – London: Phillimore, 1997.
8. Mills A.D. A Dictionary of British Place-Names. – Oxford: OUP, 2011.
9. Room A. Dictionary of Place-Names of the British Isles. – Oxford: OUP, 1996.
10. Coates R. The meaning of place names. // *Journal of Historical Linguistics*. – 2012. – Vol.2(1). – P.1–26.